

**O'TKIR HOSHIMOV IJODIDA HAJVIYOTNING O'RNI.****Eshpulatova Nasiba Fozil qizi***Samarqand davlat universiteti 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: maqolada O'tkir Hoshimov ijodida hajviyotning o'rni, hajviy qissa va hikoyalarda ijtimoiy – siyosiy muammolarni yoritib berish mahorati, badiiy qahramonlar xarakteristikasidagi o'ziga xos jihatlar, adib ijodida hajviy hikoyalarning badiiy talqini ochib berilgan. Hazil, yumor va satiraning badiiy adabiyotdagi vazifasi O'tkir Hoshimovning hajviy asarlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hajv, qissa, hikoya, kinoya, xarakter, obraz, ramz, personaj, tip, yumor, satira.

O'tkir Hoshimov ijodida hajviyotni keng talqin qilish mumkin. Uning nafaqat hajviy hikoya va qissalari balki boshqa romanlari tarkibida ham qahramonlar nutqida xalqimizga xos hazil-mutoyiba va latifalarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Adib asarlarida xalqona ruh, hayotiylik va millatimiz xarakteristikasi yaqqol ochib berilgan. Masalan, O'tkir Hoshimovning onasiga bag'ishlab yozgan "Dunyoning ishlari" qissasiga bejizga sof, samimiy, yengil o'qiladigan asar deyilmagan. Qissa qancha vaqtlar o'tsa hamki o'z o'quvchilarini yo'qotmagan. Asar adibning bolaligidan tortib onasi bilan bog'liq hikoyalardan tashkil topgan bo'lib, adib hayotidan, ko'rgan bilganlaridan ilhomlanib yozgan. Shu sababli ham asar juda jonli chiqqan. Qissadagi har bir qahramon nutqida soddalik, samimiylilik sezilib turadi. O'z o'rnida hayotiy hajviy hangomalar ham asarni bir qadar o'qishli va qiziqarli qilgan. O'tkir Hoshimovning deyarli barcha asarlarida kundalik hayotimizda tez-tez uchrab turadigan kulgili vaziyatlar, dialoglarida askiya, kinoya, kesatiq, lof kabilarni uchratishimiz mumkin. Shu o'rinda O'tkir Hoshimovning hajviy hikoyalari ham o'zbek adabiyoti hajviyoti rivojiga alohida hissa qo'shgan. Uning har bir hikoyasida hayotimizda uchrab turadigan biror holat tasvirlanadi. O'ylab qaralganda bu vaziyatlarni har birimiz yashab o'tganmiz, har biri biz guvohi bo'lgan tanish holatlardan. Adib shu holatlarning ba'zilari qanchalik kulgili ekanligini ko'rsatsa, ba'zilari naqadar achinarli, ahmoqona holat ekanligini kulgi ortida yashirib tasvirlaydi. Masalan, "Shaharlik kuyov" hikoyasida xalqimizning naqadar mehmondo'st, ko'ngli ochiq, saxiy ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda shaharlik kuyovning bir xonali uyiga qishloqdan kelayotgan mehmonlardan yosh oilaning moddiy ahvoli ancha qiyinlashib qolganligi, mehmonlarga joy berib uy egalari o'zlari biri ishxonasida biri balkonda yotayotganligi, ularga ro'zg'or qilish uchun qarzga botayotganligi va kelayotgan mehmonlarning shaharlik kuyov va uning oilasiga tashvish keltirayotganligi va noqulaylik tug'dirayotganligini o'ylamasligi naqadar achinarli hol ekanligini hajviy tarzda ko'rsatib bergan. Hikoya so'ngida shaharlik kuyov uyiga kelayotgan mehmonlarga



ochiq chehrada “ Kelaveringlar, kelaveringlar “ , deydid o’zi “aspirantlar uyi” ga ko’chib ketayotganligini aytib chiqib ketadi. Bu yerda ham qahramonning ahvoli mehmonlarga o’z uyini berib o’zi ko’chib ketadigan darajaga yetib kelganligi ochiq ifodalangan. Hayotimizda shunga o’xshash hangomalar uchrab turadi. Adibning yana bir shunday hikoyalaridan biri “Ko’kyo’tal” bo’lib, unda jamiyatimizdagi illatlardan biri bo’lgan poraxo’rlik haqida gap ketadi. Hikoya bosh qahramoni o’z hovlisida issiqxona ochishga qaror qiladi. Issiqxona ochish uchun “Jiguli” mashinasini sotadi va litsenziya olish uchun shahar hokimligiga borganida unga litsensiza olish uchun bir nechta joydan spravka olish kerakligini aytishadi. Shunday qilib u dastlab o’zi yashaydigan mahalladan tortib qo’ni-qo’shni, issiqlik ta’minoti, ishxonasi, nalogovoy inspeksiya, zemlemer va xatto bog’chadan ham spravka olishga boradi. Borgan har bir joyida spravka yozib beruvchilarundan “yo’talishini” ya’ni “pora” berishini so’rashadi. U litsenziya uchun spravka haqqiga “yo’talaverib” bitta mashinaning pulini ishlatib yuboradi va rostdan ham kasal bo’lib qoladi. Doktorga olib borishga tez yordam chaqirganida esa, hamshira undan tez yordam mashinasiga 10 litr benzin topib berishi kerakligini aytadi. Bosh qahramon noiloj rozi bo’ladi. Kasalxonaga borganidan so’ng doktor unga “ko’kyo’tal” tashxisini qo’yadi, ammo palataga olmaydi. Unga karidorga kushetka qo’yib berishlarini aytib, olib kelishi uchun oxiri yo’q ro’yxat tuzib beradi. Hikoya so’ngida doktorning ham maqsadi bemordan pul undirish ekanligi ma’lum bo’ladi. Muallif buni shunday tasvirlaydi: “- Okamni bir haftada otdek qivoramiz! - Keyin menga yuzlandi. - Yo’taling, oka, qattiqroq yo’taling! Iloji bo’lsa, “ko’ki” dan yo’taling! Qancha ko’p yo’talsangiz, shuncha tez tuzalasiz!”⁷⁰ Hikoyada jamiyatimizning deyarli barcha sohasida ildiz otib ketgan poraxo’rlik va ortiqcha qog’ozbozlik ochiq oydin ko’rsatib berilgan. Asar hajviy shaklda jiddiy muammoni ochib beradi. Qahramonlar nutqida kinoya, kesatiqdan keng foydalaniladi. Bu kabi holatlarni kundalik hayotimizda har birimiz ko’rgan yo’ eshitgan bo’lishimiz aniq. Muallif shu illat qanchalar achinarli ahvolda ekanligini va insonlarga zararini shu va shunga o’xshash qator hikoyalarida juda chiroyli tarzda ochib bergan.

O’tkir Hoshimov hikoyalarida xalqimiz ruhiga, hayot tarziga singib ketgan hammamizga tanish voqealarni yoritib beradi. Adibning “Tabassumga moyil gaplar” turkumida ayniqsa hayotiy dialoglar o’quvchini kuldirmay qolmaydi. Bunga sabab suhbatlarning hayotiyli va adibning tasvir mahorati. Bu turkum o’z ichiga yozuvchi hayoti davomida eshitgan va o’zi ishtirok etgan kichik dialog va hikoyalarni jamlagan bo’lib, aksariyati o’zi birga ijoda qilgan Said Ahmad, Erkin Vohidov, Nosir Fozilov, Abdulla Oripov, Mirtemir, Shukur Xolmirzayev kabi ijodkorlar bilan bo’lgan kulgili voqealar haqida. Hikolar orqali kitobxonning nafaqat kayfiyati ko’tariladi balki yuqorida sanab o’tganimiz ko’plab ijodkorlar hayotida bo’lgan qiziqarli holatlar haqida ham bilib olishi mumkin.

⁷⁰ Hoshimov.O’. “Ko’kyo’tal”, hikoya.



Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, O'tkir Hoshimov ijodida hajviy asarlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, adibning real voqelikni chuqur ochib berishi o'ziga xos o'rin egallaydi. Adib kulgi orqali jamiyatdagi muammolar, insoniy kamchiliklar va muammolarni yoritib, o'quvchini shunchaki kuldiribgina qolmay, uni teran fiklashga chorlaydi. Asarlarining hayotiyli va yengil tili ayniqsa kitobxonlar orasida sevib o'qilishiga sabab bo'ladi. Yozuvchi hajviy asarlarni faqat tanqidiy ruhda emas, balki tarbiyaviylik jihatidan ham kuchli badiiy vosita sifatida yozadi. Shuningdek u ko'pincha hajvni drammatizm bilan uyg'unlashtiradi ya'ni o'z asarlarida hajv orqali ba'zan achchiq haqiqatni tasvirlasa, ba'zan sof, samimiy tuyg'ularni tasvirlaydi. Bu esa adib asarlariga ikki xil ma'no beradi: shunchaki o'qilganda kulgili, ammo chuqur mulohaza qilib ko'rilsa jamiyatimizdagi muhim ijtimoiy-siyosiy muammolarni tasvirlaydi. O'tkir Hoshimov hikoya va qissalarida jamiyatimizda ko'p kuzatiladigan ammo ko'pchilik e'tibor bermaydigan vaziyatlarni yoritib beradi. Masalan, ilmsizlik, mamsabparastlik, poraxo'rlik, ikkiyuzlamachilik, qog'ozbozlik, ortiqcha rasmiyatchilik va xalqimiz xarakteristikasidagi mehmondo'stlik, tanish-bilishchilik, soddalik, gapga chechanlik, dabdababozlik kabilar yengil kitobxon ruhiyatiga botmaydigan shaklda yoritib beriladi.

Yozuvchi hajviyot orqali jamiyatdagi muammolarni tanqid qiladi. Qissa va hikoyalarida kinoya va kestiqdand juda keng foydalanadi, uning har bir qahramon nutqidan aytilayotgan kesatq ostida yashirin tag ma'no yotadi. Buni anglashni esa adib o'quvchining o'ziga qoldiradi. Adib yaratgan gar bir obraz psixalogiyasi va ichki ziddiyatlarini uning nutqi orqali ochib beradi. Uning asarlari tili sodda, tushunarli va xalqona ekanligi ham bu o'rinda juda qo'l keladi. U murakkab badiiy tasvirlardan emas, oddi dialoglar va xalqona iboralardan foydalanadi. Bu esa uning asarlarini tushunarli va kitobxon ongiga tez va oson yetib boradigan qiladi. Hajviy o'rnlarni yozuvchining barcha asarlarida uchratish mumkin. Bu ularga o'ziga xos ko'tarinkilik va hayotiylik berib turadi. Adib qahramonlar nutqi orqali kulgi bilan bir qatorda ularning rubiyati va xarakteristikasini ochib beradi. Hajv uning asarlarida shunchaki o'quvchida kayfiyat ko'tarish vositasigina bo'lib qolmay, balki muhim ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy mazmunni o'zida jamlaydi. Shu sababli ham, yozuvchi ijodida hajviyotning o'rni, badiiy ahamiyati haqida o'rganish uning o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish imkoniyatini beradi.